



## ABDULLA QODIRIYNING DIALEKTOLOGIYAGA OID QARASHLARI

Baxodirova Shaxlo Baxodirovna

Chirchiq davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti,

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6590847>

**ANNOTATSIYA:** Abdulla Qodiriy tilshunoslik masalalariga oid yoki dialektologiya va uslubiyat asoslariga aloqador alohida biror kitob yoki maqola yozgan emaslar (Agar mavjud bo'lsa, bizga ma'lum emas). Yozuvchining barcha asarlari tili o'ziga xos bo'lib, bu asarlar tili lingvistik aspektida jiddiy tadqiq etilishi lozim. Abdulla Qodiriy asarlarini tili jihatdan o'rghanish bo'yicha ma'lum ishlar qilinyapti. Biroq bu ishlar juda jiddiy tarzda, tizimli bir yo'nalishda davom ettirilishi zaruriyati bor. Abdulla Qodiriy ijodi, asarlari ko'plab yangi-yangi tadqiqotlar uchun manba – obyekt bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** *dialektologiya, uslubiyat, nutq madaniyati, mazmun va shakl, so'z.*

**ANNOTATION:** Abdullah Qadiri did not write a separate book or article on linguistics or on the basics of dialectology and methodology. (We don't know if it exists) The language of all the author's works is unique, and the language of these works should be seriously studied from a linguistic point of view. Some work is being done to study the works of Abdullah Qadiri in terms of language. However, this work needs to be continued in a very serious and systematic way. Abdullah Qadiri's work is a source and object for many new works.

**Key words:** dialectology, methodology, speech culture, content and form, word.

Ma'lumki, Abdulla Qodiriy tilshunoslik masalalariga oid yoki dialektologiya va uslubiyat asoslariga aloqador alohida biror kitob yoki maqola yozgan emaslar. (Agar mavjud bo'lsa, bizga ma'lum emas) Shunga qaramay, adibning ijodiy faoliyatida tilga, tilshunoslikning nazariy va amaliy jihatlariga taalluqli bo'lgan ajoyib fikrlarni kuzatamiz. Bu fikrlar tilshunoslik va uning sohalariga oid muhim nazariy masalalar bo'yicha adib qarashlarining asosini tashkil etadi. Ana shu fikrlar Abdulla Qodiriyning tilshunoslik sohasidagi ilmiy merosi bo'la oladi.

Abdulla Qodiriyning ibratli shogirdlaridan bo'lgan Malik Rahmon "To'g'ri so'z ustoz" xotira maqolasida ("Qodiriyni qo'msab", "Yodnoma", T., 1994-y.) adibning quyidagi fikrini keltiradi: "- Turli kasb egalari, hunarmandchilik, kosibchilik namoyondalarining so'z boyliklarini to'plash uchun jumhuriyatning turli rayonlariga vakillar yuborib, kasb egalarining so'z boyligini fursat



g'animatligida to'plab olish kerak. Vaqt o'tishi bilan har narsa unutiladi, - dedilar. Shu bilan birga, bu ishda tilning o'ziga xos tomonlarini saqlab borishga ham rioya qilish lozimligini uqtirdilar", (51-bet).

Bu gaplar tilshunoslikning murakkab bo'limlaridan bo'lgan dialektologiya (shevashunoslik) sohasiga aloqador bo'lgan ham nazariy, ham metodologik, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lgan, dialektologiya fanining tub mohiyat-maqsadini yoritib beradi. Bu sohaga yondashuvning metodologik asosini tashkil etadi.

Bu fikr til boyligi, tilning boyish imkoniyatlari, til lug'at tarkibining o'zgarib turishi, kasb-hunar leksikasiga e'tibor, uning o'rni, har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari bo'lishligiga, bu o'ziga xos jihatlarga e'tibor qaratilishi lozimligi borasidagi umumiylazariy fikrlarni to'ldiradi. Shuningdek, Respublikaning turli joylarida turli xil lug'aviy birliklar bo'lishi mumkinligi, o'zbek tili ko'p shevali til ekanligi haqidagi fikrlarni ham boyitadi. Abdulla Qodiriay aytmoqchiki: "Tilimiz ko'p shevali til; tilimizda kasb-hunar leksikasi juda boy, u o'zgarib turadi, tilning lug'at zaxirasining bir qismi; Leksika tilning lug'at boyligini tashkil etadi; shevalarda bu boylik to'planishi, adabiy tilga olib kirilishi kerak...",

Ma'lumki, har bir til lug'at tarkibining "Kasb-hunar leksikasi" deb ataluvchi maxsus qismi bor, bu til lug'at zahirasining asosiy qismini tashkil etadi: temirchilik sohasiga oid terminlar-so'zlar; duradgorchilik terminlari; kashtachilik terminlari; zargarlik terminlari; kulolchilik va boshqa sohalarga oid terminlar, xullas, paxtachilik, pillachilik, g'allachilik, chorvachilik, sholichilik, bog'dorchilik kabi yana ko'plab sohalarga oid terminlar; fan sohalariga oid so'z-terminlarni (bular nihoyatda ko'p-faqat qonunchilik yoki uzumchilik terminlarining o'zi olti yuzdan ortiqdir) yig'ish va o'rganish masalasi adib tomonidan anglab bo'lingan. Shunga ko'ra, u bu ishni amalga oshirish bo'yicha tavsiya beryapti. Chunki shu ishlarsiz tilning haqiqiy boyligini belgilab bo'lmaydi. Shuningdek, til egalarini bu so'z zaxirasidan bahramand qilish masalasi ham borki, Abdulla Qodiriay asosiy diqqatni ana shunga qaratgan. Adib tilning so'z boyligi tez o'zgarib turishi eskirishi, ular o'rniga yangi so'zlar kelishi mumkinligi, shu tariqa til lug'at tarkibi dinamikasini nazariy asoslayapti ("vaqt o'tishi bilan ko'p narsa unutiladi"). Shu bilan birga, Abdulla Qodiriay tilning lug'at tarkibi bilan ish tutishda (ularni aniqlash, toplash, saralash, tahlil qilish kabilarda) har bir tilning o'ziga xos xususiyatlarini saqlab berishga ham rioya qilish lozimligini ta'kidlaydi.



Ko'rindiki, til lug'at tarkibining o'zgarib turishi masalasi ham, tilning lug'at tarkibi bilan ish tutishda har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi zarurligi masalasi ham eng muhim va juda jiddiy nazariy masaladir. Ana shu masalalar Abdulla Qodiriy tomonidan to'g'ri talqinini topgan. Abdulla Qodiriy, aynan, (bizningcha) til lug'at doimiy muammoligicha turuvchi, bir nazariy fikrni to'g'ri talqin etadi: "Hamma til ham qo'shni tillardan "qarz" oladi. Busiz iloji yo'q. Asar faqat o'z tilidagina yozilsa shirasiz, quruq chiqadi. Yozuvchi o'z xalqining tilini, folklorini kamol o'rganishi shart va bir necha tillarni, ayniqsa, yaqin qo'shni tillarni, bilishi fazilat. Shundagina tili boyiydi, asari jonlanadi". (Matn "Yodnoma"dan olindi, 72-bet)

Matndagi birinchi fikr yirik tilshunos olim Mahmud Qoshg'ariyning "Dunyoda aralashmagan til yo'q...", degan mashhur fikriga hamohangdir. Bu fikr orqali adib tillarning o'zaro aloqasi, so'z o'zlashtirish kabi eng dolzarb va murakkab nazariy masalaning yechimini bayon qilyapti. Shuningdek, badiiy asarda o'zlashgan so'zlardan ham foydalanishning o'rni, bu so'zlarning asar tili rang-baranligiga, ta'sirchanligiga ta'siri masalasini ham to'g'ri hal etgan. Abdulla Qodiriy adib ijodiy faoliyatida o'z tilini, folklorini mukammal o'rganishi, hayotni xalq urf- odatlari, turmush tarzini mukammal bilishi va ulardan foydalanishi shart ekanligini ta'kidlaydi. Ko'p til bilishning ahamiyati, nutqni boyitishdagi o'rnini, so'z qabul qilish me'yorlarini ham to'g'ri belgilab beryapti. O'zbek tili taraqqiyotiga to'g'ri baho bergan Abdulla Qodiriyning quyidagi fikri o'rinnlidir: "O'zbek tili kambag'al emas, o'zbek tilini kambag'al deguvchilarning o'zi kambag'al. Ular o'z nodonliklarini ("Tilni yaxshi bilmasliklarini", demoqchi — Y.T.) o'zbek tiliga to'nkamasinlar." Adibning bu fikri M.V.Lomonosovning "Turli fikrlarni ifodalash uchun so'z topolmaslikni tilning kambag'alligidan emas, balki o'zimizda mahorat yo'qligidan deb bilish kerak", - degan fikrini to'ldiradi. Aminmizki, Abdulla Qodiriy Lomonosovning bu fikri bilan, albatta, tanish bo'lмаган. Shunga qaramay, tilga baho berish, uni mukammal bilish lozimligi - haqida o'zining jiddiy nazariy va amaliy- ahamiyatiga ega bo'lgan fikrini to'g'ri bayon qilyapti.

Adib bu fikri bilan K.Paustovskiyning: "Ona tilini qadrlamaslik vaxshiylikdir", - degan fikrini chin qalbdan quvvatlyapti. Abdulla Qodiriyning o'zbek tiliga munosabati— mehr-muhabbati va hurmati haqida go'yo K.Paustovskiy : - bashorat qilib quyidagilarni aytgan; "O'z tiliga munosabatiga qarab turib, har bir odamning madaniylik darajasining emas, balki uning grajdanlik kadr- qimmatini ham aniq aytib "bersa bo'ladi"... "O'z vataningga bo'lgan chinakam



muhabbatingni o'z tilinga bo'lgan muxabbatingizsiz tasavvur etish mumkin emas", Ana shu tarzda, Abdulla Qodiriyning til, uning boyligi, taraqqiyoti, so'z o'zlashtirishga oid qarashlari, umuman, tilga munosabati bo'yicha fikrlari yirik olimlar, mashhur adiblar, so'z ustalari — mutafakkirlar tomonidan aytilgan fikrlarga hamohang — ular fikrlari darajasida ekanligi bilan hayratlidir.

Abdulla Qodiri o'z ijodiy faoliyatida nutq odobi, nutq madaniyati, muomala xulqi borasida ham eng muhim qarashlarni bayon qiladi: "So'z so'zlashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak. Tuzilgan jumlaning o'zining tushunib, boshqalarning tushunmasligi katta ayb. Asli yozuvchilik aytmoqchi bo'lgan fikrni hammaga barobar anglata bilishda, oraga anglashilmovchilik solmaslikdadir". Bu fikrdan quyidagilarni anlaymiz:

1) Matndagi "so'z" so'zi nutq ma'nosida qo'llangan, so'z ning shunday ma'nosini ham bor va bu o'rinda u o'rinali qo'llangan; 2) so'z jumlaning matnnning materiali, uni shakllantiruvchi asosiy birlik-jumlalar so'zlardan, so'z birikmalaridan tuziladi. Biroq: 3) jumla tuzilar ekan, uni shakllantirish uchun so'z tanlashga juda katta e'tibor berish lozim – har qanday so'zni grammatik va ma'no-mazmun jihatdan mos kelar ekan, deb ishlataverish mumkin emas. Vaziyatga, kimga aytilayotganligiga qarab, mulohaza qilib turib nutq tuzish, uni bayon qilish lozimligi uqtirilyapdi. Tanlangan so'zlarining hammaga barobar tushunarli bo'lishi, so'zlar o'zi ifodalayotgan tushunchalar mohiyatiga mos bo'lishi lozimligiga, ya'ni nutq aniqligi, mantiqliligi, ayniqsa, jo'yaliligi talablariga javob berish kerak. Adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov qayd etib, tanqid qilib o'tgani kabi badiiy adabiyotda bomba so'zi o'rnida granata so'zini ishlatib ham jumla tuzib ketaverish o'zini oqlamaydi. Buning ustiga, shakllangan urf-odatlar, an'analar, rasm-rusumlar, mentalitet, degan, gaplar ham o'zaro hurmat, odamgarchilik, insoniylik, turli xil vaziyatlarni hisobga olish narsalar ham bor. Ana shularni hisobga olgan Abdulla Qodiri o'z fikrini davom ettirib: "Qalam-o'qlog'i, adabiyot ketmon bozori emas. Yo'sinsiz ravishda xotiraga kelgan har bir so'zdan jumlalar to'qimoq fazilat sanalmaydi. So'z qolip ("so'z" bu o'rinda gap jumla ma'nosidadir), fikr uning ichiga qo'yilgan g'isht bo'lsin, ko'pchilik xumdonidan pishib chiqqan, ya'ni hayot ayvoniga asos bo'lib yotsin. Bu fikr bilan adib, ko'rib turibmizki, "Gapning o'ziga xos ma'lum qoliplari andozalari bor. Ular milliy tilda, davrlar o'tishi bilan shakllangan-sayqal topgan. Milliy tilning o'ziga xos grammatik-semantik qonun-qoidalari asosida tarkib topgan, fikrning nutqdagi shaklidir. Ana shu andoza — fikr ifodachisi. Bu fikr va shakl-mosligini yuzaga keltiridi.



Mazmun va shaklning mosligi, nutqiy jarayonda uyg'unlashadi, qo'llaniladi ko'pchilik xumdonida pishadi, me'yorlashadi, hayotga yo'l oladi", – demoqchi.

Jumla tuzishda so'z tanlashning nihoyatda muhim ekanligi adib tomonidan qayta-qayta ta'kidlangani beziz emas. Chunki so'z fikrning aniq, lo'nda va mantiqli ifodasi uchun xizmat qilishi lozim. Abdulla Qodiriy ana shunga o'quvchi e'tiborini tortmoqchi. Mana shu o'zgachalik o'zbek adabiy tilining o'ziga xos tarzda sayqal topishini, umumxalq o'zbek tilining eng oliy shakli bo'lgan o'zbek adabiy tilining to'la, hozirgi kundagi holatida shakllanishini ta'minlagan, bu tilning boy, ta'sirchan, tushunarli, mantiqli, aniq nutq, jo'yali nutq tuzish uchun to'la yaroqli ekanligini isbotlaydi. Abdulla Qodiriy ijodini, uning o'lmas asarlarini jiddiy o'rganish, tahlil qilish, ijod yo'liga, yozuvchilik mahoratiga, tilimizga, tilga munosabatiga, xolis va to'la baho berish vaqt keldi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. V.Rahmon. "O'zbek romanchiligining shoh asarlari" ("Adabiyot, badiiyat, abadiyat", T., 2004 y.)
2. Y.Tojiyev. "Til jozibasi" (A.B.A., T., 2004 y.)
3. Malik Rahmon. Qodiriyni qo'msab. "To'g'riso'z ustoz" T., 1994-y. 49-bet.
4. I.Qo'chqortoyev "A.Qodiriy asarlarining tili haqida" (O'zbek tili va stilistikasi", T., 1972 y.
5. Abdulla Qodiriy "Diyori bakr" kichik asarlar to'plami. "Yangi asr avlodni", 2007-y.
6. Umarali Normatov. "Qodiriyning so'nggi iltijosi" T., 2014-y.
7. Pirimqul Qodirov. Xalq tili va realistik proza, T., 1973 y.
8. Qodirova Xurshida Botirovna. Abdulla Qodiriyning efemizm va disfemizmdan foydalanish mahorati". nom.diss., T., 2012 y.
9. O. Sharafiddinov. "Birinchi mo'jiza" T., 1979-y.